

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
<b>Z.T.Aripov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
<b>N.O.Saidova</b>	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
<b>M.A.Abdubannobova</b>	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
<b>O.A.Ashurova</b>	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
<b>B.Latipov</b>	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
<b>T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov</b>	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
<b>V.T.Jo'rayev</b>	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
<b>Z.M.Xursanova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
<b>M.A.Jalilov</b>	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
<b>Z.X.Siddiqov</b>	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
<b>M.G'.Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
<b>Г.П.Наркабилова</b>	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
<b>N.Q.Olimova</b>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
<b>D.T.Rustamova</b>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
<b>Y.U.Egamberdiyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
<b>U.Y.Axmedova</b>	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
<b>M.U.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
<b>M.A.Mamasaidova, S.Sobirova</b>	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
<b>M.A.G'ofurova</b>	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
<b>D.M.Gazieva</b>	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 37.091.4:004.9

**O'QUVCHILAR BILIM VA KO'NIKMALARINI BAHOLASHDA DASTURIY ILOVALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ ДЛЯ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ****EFFECTIVENESS OF USING SOFTWARE APPLICATIONS TO EVALUATE STUDENTS' KNOWLEDGE AND SKILLS****Bakirov To'liqinjon Yunusaliyevich<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,**Mamatqulov Ravshanjon Ma'murjonovich<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarni bilimni xolisona baholash, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish va reytingini aniqlashda, zamonaviy dasturlardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Haqiqatdan ham hozirgi kunda o'quvchilarni bilimni to'g'ri baholash eng muhim muammolardan birib bo'lib kelmoqda. Shunday ekan IT sohasi vakillarining oldiga qo'yilgan eng ulkan vazifasi hozirgi kunda ishonchli va samarali dasturiy ilovalar ishlab chiqish kun talabiga aylanib bormoqda. Biz yuqorida keltirilgan fikirlarni inobatga olib quyidagi dasturlarni o'zimiz uchun belgilab oldik. Bu dasturlar MyTest, Google Forms, QuizMaker, iSpring Dialog Trainer va h.

Ushbu ilovalarning barchasini ta'lim sohasida o'quvchi yoshlarni bilim va ko'nikmalarini baholash uchun eng yaxshi va samarali deb hisoblashimiz mumkin. Masalan biz MyTest ilovasi orqali ish samaradorligi, fikirlashni rivojlantirish, va ortiqcha vaqt sarflamslik kabi bir qator ishlarni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

MyTest ilovasi o'quvchi yoshlarni bilimni baholash uchun juda qulay va sodda ishlangan ilova bo'lib uni ishga tushirish o'quvchilardan ortiqcha bilim va tajriba talab qilmasligi va shu qatorda bu dasturni istalgan fan o'qituvchisi ham juda tez va kam vaqt sarflab o'rganib olishlari mumkin bo'ladi.

**Аннотация**

Целью данной статьи является разработка механизмов использования современных программ для оценки знаний молодежи, стимулирования их интереса к обучению, определения их рейтинга. Сегодня точные знания учащихся являются одной из важнейших проблем. Поэтому самая большая задача, поставленная перед представителями ИТ-отдела, заключается в том, что разработка надежного и эффективного программного обеспечения становится повседневным требованием. В знак признания вышеизложенных идей мы определили для себя следующие программы. Это MyTest, Google Forms, QuizMaker, iSpring Dialog Trainer и т.д.

Мы можем считать все эти приложения лучшими и наиболее эффективными для обучения молодых людей в сфере образования, чтобы они приобретали свои знания и навыки. Например, с помощью приложения MyTest мы можем делать ряд вещей, таких как продуктивность, развитие мышления и чрезмерные затраты времени.

Приложение MyTest - это очень удобное и простое в использовании приложение для оценки знаний молодых людей, и его запуск не требует от учеников дополнительных знаний и опыта, и в то же время любой преподаватель-любитель может освоить эту программу очень быстро и за очень короткое время.

**Abstract**

This article aims to develop mechanisms for using modern programs to evaluate young people's knowledge, increase their interest in learning, and determine their rating. Nowadays, accurate knowledge of the reader is one of the most important problems. Therefore, the greatest task assigned to IT representatives is that the development of reliable and effective software is becoming a day-to-day requirement. In recognition of the above ideas, we have identified the following programs for ourselves. These applications are MyTest, Google Forms, QuizMaker, iSpring Dialog Trainer, and.

Therefore, the greatest task assigned to IT representatives is that the development of reliable and effective software is becoming a day-to-day requirement. In recognition of the above ideas, we have identified the following programs for ourselves. These applications are MyTest, Google Forms, QuizMaker, iSpring Dialog Trainer, and.

We may consider all of these apps to be the best and most effective for educating young people in education to acquire their knowledge and skills. For example, through the MyTest app, we can do a number of things, such as productivity, thinking development, and excessive time consumption.

*The MyTest app is a very convenient and simple-to-use app for evaluating the knowledge of young people, and running it does not require more knowledge and experience from students, and at the same time, any fan teacher can learn this program very quickly and in very little time.*

**Kalit so'zlar:** Ta'lim sohasida o'quvchilarni samarali o'qitish va bilimni baholash ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda.

**Ключевые слова:** Эффективное обучение и знания студентов в сфере образования стали приоритетными.

**Key words:** Effective teaching and knowledge of students in the field of education has been a priority.

## KIRISH

Bugungi XXI – asr texnologiyalar asrida jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda.

Bosqichli nazorat materiallari sinovlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Respublika ta'lim markazi tomonidan tayyorlanadi. Nazorat ishlari materiallariga va sinov varaqalariga ijodiy yondashgan holda o'quv fani o'qituvchilari bosqichli nazorat materiallariga o'zgartirishlar kiritishi va ularni uslubiy birlashmalar muhokamasidan o'tkazib, joriy etishlari mumkin [1,2].

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashning bosqichlari quydagilar.

Joriy nazorat, oraliq nazorat, bosqichli nazorat, yakuniy nazorat, formativ nazorat va summativ nazorat [3].

O'quvchilar bilimlari, ko'nikmalarini so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar joriy nazorat orqali muntazam sinovdan o'tkazish va nazorat qilish;

Maktablarda o'quvchi yoshlarni IT sohalariga qiziqtirish va yo'naltirish ushbu fanini o'qitish ularni bilim darajasini to'g'ridan to'g'ri internet manbalari va dasturiy ilovalar orqali tekshirish hozirgi kundan eng yuqori talab darajasiga aylanib bormoqda. Lekin biz oldindan qo'llab kelgan metodlarimiz orqali o'quvchining bilim darajasini tekshiradigan bo'lsak, test yozma nazorat yoki og'zaki nazorat qilinadigan bo'lsa bu jarayonda shaffoflik va odillik, o'quvchi fikrida xulosalilik va mazmun jihatidan noqulaylik paydo bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchi yoshlar mavzu yuzasidan beriladigan savollarga aniq va lo'nda javob o'rniga mavzu mohiyatini yoritib beradi, bu esa o'quvchilarning bilim salohiyatiga ta'sir etmay qolmaydi.

Bugungi kunda zamonaviy dasturlar va metodlardan foydalanib o'tkazilgan monitoring test jarayonlari o'quvchi fikri aniq va tez bayon etishga yordam beradi. Aslida nazorat testlari o'quvchining bilimni aniqlash, o'zlashtirish sifatini tezkor tekshirish, xatolarni o'z o'rnida tuzatish, bilim sohasidagi kamchiliklarini aniqlash va uni bartaraf etishga yordam berishi kerak. Dars jarayonlarida testlardan foydalanishdan maqsadlar quyida keltilgan:

- ish samaradorligini oshirish;
- ish faoliyatini to'g'ri baholash;
- o'quvchining bilimni sinovdan o'tkazish;
- xalollikni ta'minlash;
- baholash uchun to'g'ri strategiya qo'llash;
- qo'shimcha motivatsiya uyg'otish;
- fikrlash xususiyatini aniqlash;
- vaqtni tejash va boshqalar.

Yuqorida keltilgan fikrlarni inobatga olgan holda hozirda bir qator dasturiy vositalar yaratilib kelinmoqda. Bu dasturiy vositalar orqali biz quydagi imkoniyatlarga ega bo'lamiz, fikrini bir joyga jamlay olishga va bilim olish darajasini keskin oshirishga bu orqali fanlarni erkin, chuqur o'rganishi va olgan bilimlarini har qanday sharoit va holatda ham qiynalmasdan testlar yoki og'zaki savol javob orqali tekshirishi mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarni bilimni baholashning zamonaviy usullaridan biz quydagi dasturlarni misol qilib aytishimiz mumkin. MyTest, Google Forms, QuizMaker, iSpring Dialog Trainer va boshqa shu kabi dasturlar yordamida o'quvchilarning bilim va konikmasini aniqlash mumkin.

Yuqorida takidlagan dasturiy vositalarning qulay tomonlari juda ko'p bo'lib sifatli va foydali hisoblanadi.

Informatika fanini o'qitishda samarali usullardan biri bu MyTest dasturi juda qulay va sodda ishlangan bo'lib, istalgan fan o'qituvchisi ushbu dasturni juda tez va kam vaqt sarflab o'rganib

## PEDAGOGIKA

olishlari mumkun bo'ladi. Ushbu MyTest dasturi orqali 9 - hil test topshiriqlarini yaratish mumkin [1,3].

Bunday testlarning afzalliklari:

- o'qituvchi va o'quvchi vaqtni tejaydi;
- variantlar sonini ko'pligi;
- javoblarni avtomatik o'zi tekshirishi;
- sinov natijalarini saqlab qolishi;

- testni o'quvchi yoshlar o'zi qulay vaqtda boshlashi. MyTest dasturidan foydalanib quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- test variantlaridan birini tanlashi;
- o'tkazilishi kutilyotgan test sonini belgilash;
- test vaqtni belgilash;
- test javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab o'tishni rejalashtirish;
- test javoblarni o'z o'rnida ko'rsatib izohlar qoldirish va ko'rsatmalar berish;
- test savol yoki javoblar uchun rasm, formula, multimedia va boshqa animatsiyalardan foydalanish;
- to'g'ri javoblarga ballar berish va olish.

MyTest dasturining afzalik tomonlari ta'lim sifatini oshiradi, shuningdek darsga tarqatmalar yoki test savollarini tuzish uchun ortiqcha vaqt sarflamaydi. MyTest dasturida fan yuzasidan turli o'quv materiallarini joylashlari mumkin bo'ladi. O'quvchi yoshlarga ham bu jarayon qulaylik tug'diradi. Dars jarayoniga qatnasha olmagan o'quvchi uni yo'lda yoki uyda ham bemalol o'zlashtirishi mumkin. Darsdan tashqari o'zini ham o'tilgan mavzular yuzasidan test yoki o'qituvchi tomonidan dasturga joylashtirilgan materiallardan o'z bilim darajasini tekshirib olishlari mumkin bo'ladi. Bu dasturni aynan informatika fani o'qituvchilari emas balki boshqa fan o'qituvchilari ham o'z darsida bemalol qo'lashlari mumkun bo'ladi. Qolaversa ushbu dasturida fan o'qituvchilari o'z fani bo'yicha tushunchalarini joylab borishi, yosh avlod uchun ayni muddao bo'lib hizmat qiladi. Dasturda yaratilgan testlar o'quvchi yoshlarni tez fikrlashga, fikrini tezda jamlab olishga, kompyuterdagi barcha buyruqlarni o'rganib va xato qilmaslikka, hushyorlikni oshirishga, vatga qarab ishlashga o'rgatadi.

MyTest dasturida yaratilgan testlarni masofaviy o'qitish tizimlari SCORM yoki AICC da ham oson joylashtirish mumkin bo'ladi [4].

Bugungi kunda ta'lim sohasining barcha jabhalariga interfaol metodlar bilan bir qatorda maktablarda emaktab.uz, oliy ta'lim tizimida esa hemis kabi platformalar kirib kelgani quvonchli bir hol bo'ldi. Bu platformalarda dars mashg'ulotlari, o'quvchilar davomati, o'qituvchi pedagoglarning ish faoliyatdan na'munalar va darslarni onlayin tashkil etish, shu bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarni bilimlarini baholash uchun test topshiriqlari joylash imkoniyati ham mavjudligi o'qituvchi va o'quvchilar uchun qulaylik tug'durdi.

Shuning uchun zamonaviy metodlardan va ilg'or texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilayotgan ilovalar yoshlar e'tiborini tortmoqda va ularda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Bunday ilovalardan eng samaralisi bo'lgan MyTest dasturida tayyorlangan testlarni misol qilishimiz mumkin.

Hozirda MyTest dasturida yaratilgan testlar va boshqa foydalanish uchun yaratilgan nazorat uchun materiallarni Word daturiga eksport qilish, qog'oz variantida chiqarish mumkin. Testlarni tuzishda test tuzish qoidalariga muvofiq, vaqtlarni to'g'ri taqsimlab, javoblar uchun ballar ajratib, noto'g'ri javoblar uchun ballar ayirish usullaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki bu kabi tuzilgan testlar o'quvchini bilmagan savollariga taxminiy javoblar qo'yishdan tiyilishiga olib keladi. Bu o'quvchini kelajakda o'z ustida ishlashiga sabab bo'ladi. Axborot kommunikatsion va innovatsion texnologiyalar ta'lim mazmunini boyitadi, hamda o'qitish shakli, usul va vositalarini yangilash vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarning kirib kelishi kompyuter texnologiyasining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonida elektron adabiyotlar va multimediali dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini beradi [5].

### XULOSA

Bugungi kunda bizning kelajagimiz bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib, tarbiyalash vazifasi muhimdir. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarini o'qitishda

pedagogik yondashuvlar o'zgaruvchanligi, o'qituvchilar orasida ijodiy izlanish erkinligi, eng yaxshi xorijiy tajribadan foydalanish, pedagogik tizimni tanlash imkoniyati va hozirgi zamon talabiga mos bo'lgan internet manbalari va dasturiy vositalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish va dars jarayonlariga o'quvchilarni to'liq qamrab olish talab etilmoqda. Bu talabga ko'ra maktablarda tizimli ishlar olib borilib, dars jarayonlari to'liq kompyuterlashtirilgan muhitda tashkil etilmoqda. Bu esa AT yo'nalishida yana bir oldiga qo'ygan katta yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi.

MyTest dasturi esa bugungi kun talabini qondira oladigan dasturiy ta'minot hisoblanadi. Bu dastur kelajak yoshlarimiz uchun foydali interfaol qo'llanma bo'lib hizmat qiladi [6].

#### REFERENCES

1. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari. Uslubiy qo'llanma. Akademik S.S.G'ulomov . – T.; TDIU 2005. 90 b,105 b.
2. A. Abduqodirov, A. G'. Hayitov, R. R. Shodiev «Axborot texnologiyalari» T, "O'qituvchi", 2002 y.
3. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. "IT innovatsion texnologiyalar". Uslubiy qo'llanma.
4. <https://vk.com/mytestxpro>
5. S.S.G'ulomov «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T. «Sharq», 2000 y.
6. U.X.Xayitov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalari. Uzlusiz holat texnologiyasi. AQSh-2020. Jild: 63-soni: 6. B. 478-489.
7. M.M. Aripov, T. Imomov va boshqalar «Informatika, axborot texnologiyalari» T. TDTU, O'quv qo'llanma, 1-2 qism, 2002, 2003 y.